

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SETTIYEVA ADOLAT FAXRIDDIN QIZI

**QIMMATBAHO TOSHLAR VA QIMMATBAHO METALLAR BILAN
BOG‘LIQ MUNOSABATLARNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNING AYRIM MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Settiyeva Adolat Faxriddin qizi

Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog‘liq munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari 3

Adolat Fakhriddin qizi Settieva

Certain Issues of Civil-Legal Regulation of Relations Involving Precious Stones and Precious Metals..... 23

Сеттиева Адолат Фахриддин кизи

Некоторые вопросы гражданско-правового регулирования отношений, связанных с драгоценными камнями и драгоценными металлами..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 46

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SETTIYEVA ADOLAT FAXRIDDIN QIZI

**QIMMATBAHO TOSHLAR VA QIMMATBAHO METALLAR BILAN
BOG‘LIQ MUNOSABATLARNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNING AYRIM MASALALARI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Yu1895 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Bozarov Sardor Sohibjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Ergashev Vosidjon Yoqubovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.27/06.2017.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 1-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233- 66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1432-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 14-oktabrdagi 90-son reyestr bayonnomasi).



I.R.Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K.Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y.Habibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Dunyoda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar davlatning, jismoniy va yuridik shaxslarning doimiy daromad manbaini, moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi strategik resurs sifatida qarab kelinganligi sababli 2025-yilda global qimmatbaho metallar bozori aylanmasi 327.47 milliard dollarga baholangan, bu ko'rsatgich 2032-yilga kelib 533.12 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu esa, 2025-yildan 2032-yilgacha 7.2 foizlik yillik murakkab o'sish suratini namoyish etadi.¹ Shuningdek, qimmatbaho toshlarning global bozori ham sezilarli darajada kengayshga tayyor bo'lib, 2025-yildagi 36 044,1 million dollardan 2035-yilda 68 151,4 million dollargacha oshadi. Bunda bozor 2025-yildan 2035-yilgacha CAGR (Compound Annual Growth Rate – Murakkab yillik o'sish sur'ati) da 6,6 foizga o'sishi kutilmoqda.² Shunga ko'ra, dunyoda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasini fuqarolik-huquqiy jihatdan tartibga solishning doktrinal g'oyalarini rivojlantirish, soha faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash hamda mavjud fuqarolik-huquqiy asoslarni takomillashtirish ustida ishlash kabi masalalar davr talabidir.

Jahonda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tadqiq etish, ayniqsa ularni qazib olish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash kabi birlamchi munosabatlarni, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq raqamli aktiv va virtual mulkni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda qimmatbaho metallar va toshlarga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo'yicha quyidagi huquqiy doktrinalar amal qiladi: “Regalian huquqi” (*Jus Regale*) -“Davlat mulkchilik doktrinasi”, “Mas'ul ta'minot doktrinasi” (*Responsible Sourcing*), “*State Pre-Emptive Rights*” (Davlat ustuvor xaridi) hamda “Hujjatli kuzatuv doktrinasi” (*Traceability Doctrine*). Bunda, qimmatbaho toshlar, ayniqsa olmos savdosini tartibga solish bo'yicha eng muhim xalqaro tashabbuslardan biri “*Kimberley Process*” (Kimberley jarayoni) hamda *London Bullion Market Association (LBMA)* (London qimmatbaho metallar bozori uyushmasi) har bir qimmatbaho metall partiyasining qazib olinishidan tortib to realizatsiyagacha bo'lgan barcha bosqichlarda hujjatli kuzatuv ostida bo'lishi kerakligi haqidagi “Traceability doktrinasi” ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda “Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi”da ko'rsatilganidek, har bir shaxs erkin fuqarolik jamiyati tomonidan yaratilgan huquq va manfaatlardan foydalanishi kafolatlanadi. Shunga ko'ra, qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar muomalasida ishtirok etadigan subyektlar huquqlarini samarali himoya qilish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri bo'lib, hozirda mamlakatimizda sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar boshlab yuborilgan. Bunga

¹ <https://www.coherentmarketinsights.com/industry-reports/precious-metals-market>

² <https://www.futuremarketinsights.com/reports/gemstones-market>

misol sifatida, qimmatbaho metallar muomalasini cheklash chegaralarining aniqlashtirib olingani, soha faoliyatidagi ishtirokchilar doirasining kengayishi, litsenziya olish tartibotlari va boshqalarga nisbatan erkinlashtirish siyosatining olib borilishi shular jumlasidandir. Shuningdek, respublikamizda **“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi** doirasida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, sifati va samaradorligini ta’minlash maqsadida “aqli tartibga solish” modeli elementlarini qo‘llash doirasida qonunchilik hujjatlarining tartibga solish ta’sirini baholashni rivojlantirish, huquq tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning yangi drayverlarini harakatga keltirish doirasida zamonaviy texnologiyalarga va raqamli faoliyatga bo‘lgan talablarni qayta ko‘rib chiqish masalalari huquq tizimini kompleks rivojlantirishning ustuvor vazifasi etib belgilangan bo‘lib, mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni dolzarb etib belgilamoqda. Shuning uchun ham, qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog‘liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalarini o‘rganish va soha faoliyatini zamon talablaridan kelib chiqib, bosqichma-bosqich takomillashtirib borish har bir mamlakat huquq tizimining asosiy, ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Respublikamizda 2020-yilda 101,6 tonna oltin qazib olindi. Bu bilan O‘zbekiston oltin qazib olish bo‘yicha dunyoda 8-o‘rinni egalladi. 2024-yilda O‘zbekiston oltin qazib olish bo‘yicha dunyodagi eng yaxshi 10 mamlakat qatoriga kirdi. Bu haqda Forbes jurnalining Butunjahon Oltin Kengashi ma’lumotlariga asoslangan maqolasida ma’lumot berildi.³

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992), O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1995, 1997), O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-710-son Qonuni (2021), “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi O‘RQ-987-son O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (2024), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4030-son qarori (2018), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qimmatbaho metallarni birja savdolari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishda zargarlik sohasida ish o‘rinlarini yaratgan tadbirkorlik subyektlariga chegirmalar berish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori (2024) va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.Yuridik adabiyotlarda qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar fuqarolik huquqining maxsus tartibga solish xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan obyekt ekanligi haqida so‘z boradi. Biroq bugungi

³ <https://www.gold.org/news> yoki <https://kun.uz/35849035>

kunga qadar tadqiq etilgan birorta ilmiy-nazariy ishlar mazmunida qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallarning birlamchi muomalasi, ushbu jarayonda ularning fuqarolik huquqiy munosabatlarning maxsus obykti sifatidagi xususiyatlari, o'ziga xos tartibga solish mexanizmlari haqida batafsil to'xtalib o'tilmagan.

Bundan tashqari, respublikamizda konchilik va metallurgiya sohasida texnik va iqtisodiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, qazib olingan qimmatbaho metallar va toshlar muomalasining huquqiy jihatlari bo'yicha maxsus monografiyalar yoki dissertatsiyalar mavjudligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Milliy huquqshunos olimlarimiz I.B. Zokirov, H.P.Rahmonqulov, O.Oqyulov, I.P. Rustambekov, N.F.Imomov, J.I. Yuldashev, B.R.Topildiyev, J.I. Babayev, Q.M.Mehmonovlarning tadqiqot ishlarida O'zbekiston Respublikasida mulk huquqi, ashyoviy huquqlar, maxsus tartibga solish rejimiga ega fuqarolik huquqi obyektlari, ashyoviy huquqlar, intellektual mulk sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslari o'rganilgan.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) davlatlaridan ushbu sohaga oid ilmiy ishlar S.I. Popova, D.O. Shniger, A.Y. Fedorov, R.M. Olimova, M.A. Zinkovskiy va S.A. Rebrovskiy, V.G. Gadiatov kabi huquqshunos olimlar tomonidan yozilgan, shuningdek, ukrainalik huquqshunos olimlar K. Dikhtyarenko, O.M. Malichenko, V. Romanov, Y. Titova tomonidan mazkur sohada ilmiy monografiyalar chop etilgan. D.O. Shniger o'zining ilmiy izlanishlari davomida Rossiyadagi bozorlarda qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar o'ziga xos fuqarolik-huquqiy obyekt ekanligi borasidagi qarashlarini aks ettirishga harakat qilgan.

Yevropada qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni elektronlashtirish yo'nalishlari, sohani tartibga solish rejimidagi o'ziga xos jihatlar haqida huquqshunos olimlar Carola Kantz, Anandasivam (Buyuk Britaniya), Laurent Cartier (Shveytsariya), Barbara Harlow (AQSh), Daniel Franks (Australiya), Eva-Maria Kieninger, H.Schulte-Nolke (Germaniya), Chung Shou-Ping, Lin Gin (Xitoy), Yaman Gursel (Turkiya), A. Vasik (Polsha) va boshqalarning ilmiy-nazariy ishlarida ko'rish mumkin.

Huquqshunos olim Carola Kantz o'zining "Precious stones, black gold and the extractive industries: accounting for the institutional design of multi-stakeholder initiatives - Qimmatbaho toshlar, oltin va uni qazib olish sanoati: ko'p manfaatdor tomonlar tashabbuslarining institutsional dizaynini hisobga olish" nomli ilmiy ishida qimmatbaho toshlar, oltin, "qora oltin" (neft) kabi resurslar kontekstida ko'pmintaqaviy soft-law mexanizmlar (qulay huquqiy rejim), xususan, Kimberley jarayonini (KP) va "Extractive Industries Transparency Initiative (EITI) - Tabiiy resurslarni qazib olish sanoatida shaffoflik tashabbusi"ning institutsional tuzilishini tahlil qiladi. Olim L.E. Cartier esa "blockchain texnologiyasi" orqali qimmatbaho metallar va toshlarning kelib chiqish manbalarini qayd etish, soxta toshlarni aniqlash muammolari haqida izlanishlar olib borgan.

Kembrij universiteti professori V.Palmer esa "Mixed jurisdictions worldwide: the third legal family - Dunyo bo'ylab aralash huquqiy qarashlar" asarida "qimmatbaho materiallarning huquqiy ta'riflari turli yurisdiksiyalarda farqlansa-da, ular odatda yuqori iqtisodiy qiymatga ega kamyob metallar va toshlarni o'z ichiga oladi va maxsus huquqiy tartibga solishga bo'ysunishi" haqida yozadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Ushbu ishning maqsadi qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar muomalasi bilan bog'liq birlamchi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish va ushbu yo'nalishdagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar huquqiy tabiati, uni tushunish bo'yicha ilmiy konsepsiyalar va doktrinalarni tahlil qilish orqali yangi ilmiy-nazariy g'oyalar ishlab chiqish;

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar muomalasi institutini tashkil etuvchi huquqiy tushunchalarni tahlil qilish, baholash va ularni takomillashtirish zaruratini aniqlash;

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar tushunchasini, mohiyatini, ushbu soha rivojlanishining istiqbollarni belgilab beruvchi milliy va chet el qonunchilik normalarini nazariy va amaliy jihatdan tatbiq etish;

qimmatbaho toshlar va metallarni qazib olish, ularga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish tarixini o'rganish;

qimmatbaho toshlar va metallar bilan bog'liq munosabatlarni amalga oshirish shartlari hamda ularni amalda qo'llashning huquqiy asoslarini tahlil qilish;

qimmatbaho toshlar va metallarni yer ostidan qazib olishgacha, qazib olish jarayonida va undan keyingi davrdagi huquqiy rejimini belgilash, xususan, ushbu qimmatliklarga nisbatan mulk huquqidagi cheklovlar va yuklamalarini aniqlash;

qimmatbaho toshlar va metallar ustidan mulk huquqining yuzaga kelishi va to'xtatilishiga asos bo'ladigan holatlarni tavsiflash;

qimmatbaho toshlar va metallar muomalasini tartibga soluvchi rivojlangan xorijiy davlatlar normativ-huquqiy hujjatlarini, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini sifatida qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini qimmatbaho toshlar va metallar bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga oid nazariy g'oyalar, ushbu yo'nalishdagi muammolar hamda sohaga oid qonunchilik normalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, tizimli yondashuv, tarixiylik, mantiqiy tahlil, aniqlashtirish, statistik va amaliyotga oid materiallarni o'rganish hamda qiyosiy-huquqiy tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bozorida zargarlik faoliyati bilan ishtirok etuvchi subyektlarga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy tartibga solishning amaldagi mexanizmlarini soddalashtirish, xususan, ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan litsenziya shartlari hamda monitoring o‘tkazish talablarini yengillashtirishga oid taklif asoslantirilgan;

fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, bevosita qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi jarayoniga oid qonunchilikdagi o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim tashkiliy-huquqiy shakllar, tartib-taomillar, huquqiy tushunchalarni bekor qilish bo‘yicha takliflar asoslantirilgan;

qimmatbaho toshlar va metallar muomalasi jarayonida qimmatbaho toshlar va metallarni ishlab chiqarish, ularga ishlov berish (qayta ishlash), foydalanish natijasida tadbirkorlik subyektlarida qimmatbaho metallar va toshlarga oid chiqindi va parchalar hosil bo‘lgan vaziyatda, mazkur chiqindi va parchalar ushbu tadbirkorlik subyektlari mulkida, operativ boshqaruvida bo‘lishi mumkinligiga oid takliflar asoslantirilgan;

qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarni tamg‘alash faoliyatida ishtirok etuvchi qonunchilik bilan belgilangan subyektlar doirasini hamda ularga tegishli vakolatlar ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallarga oid qonunchilikdagi huquqiy tushunchalarni bank, moliya sohasidagi qonunchilikda ifodalangan huquqiy tushunchalarga muvofiqlashtirishga oid takliflar asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari doirasi hamda ularning muomala layoqati aniqlashtirilgan;

qimmatbaho tosh va metallar bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari huquqlari, majburiyatlari, javobgarlik masalalari takomillashtirilgan;

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog‘liq munosabatlarning fuqarolik-huquqiy maqomi, o‘ziga xos xususiyatlari tatqiq qilinib, “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish takliflari asoslab berilgan;

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bozorida elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning tovar va xizmatlar uchun to‘lovlariga NFC (Near field communication - Elektromagnit induksiya orqali simsiz aloqa) texnologiyalari, “blokchain axborot uzatish tizimi” va boshqa elektron vositalarni joriy qilish hamda “aqilli (smart) shartnomalar” tuzish ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, soha faoliyatida vakolatli davlat organlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Davlat asillik darajasini belgilash palatasi tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumotlarga asoslangan, shuningdek xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan, bu borada huquqshunoslar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilgan hamda tegishli davlat organlari tomonidan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi bo‘yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda aks etgan ilmiy-nazariy g'oyalar, bayon qilingan materiallardan "Fuqarolik huquqi", "Xalqaro xususiy huquq" kabi modullarni o'qitishda va mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish jarayonida, shuningdek, metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur ishda bayon etilgan qoidalar va xulosalar qimmatbaho toshlar va metallar muomalasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotida tegishli huquq normalarini sharhlashda hamda davlat organlarining qonun va norma ijodkorligi faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bozorida zargarlik faoliyati bilan ishtirok etuvchi subyektlarga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy tartibga solishning amaldagi mexanizmlarini soddalashtirish, xususan, ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan litsenziya shartlari hamda monitoring o'tkazish talablarini yengillashtirishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablar qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasining 10-bandi mazmunini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2025-yil 24-iyuldagi 14-3/5-4234-son dalolatnomasi). Ushbu taklif zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, import qilish kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishning mavjud mexanizmlarini yanada soddalashtirishga xizmat qilgan;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasiga oid qonunchilikda ahamiyatini yo'qotgan ayrim huquqiy tushunchalarni bekor qilish, o'zgartirishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1025-son Qonuni 35-moddasi mazmunini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2025-yil 25-iyuldagi 14/3-son dalolatnomasi). Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-avgustdagi "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi Qonunidan hozirgi vaqtda o'z ahamiyati va zarurligini yo'qotgan tashkiliy-huquqiy shakllar, tartib-taomillar, huquqiy tushunchalar chiqarib tashlanishiga xizmat qilgan;

qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish, ularga ishlov berish (qayta ishlash), foydalanish natijasida tadbirkorlik subyektlarida qimmatbaho metallar va toshlarga oid chiqindi, parchalar hosil bo'lganda, ularni tadbirkorlik subyektlari mulkida, operativ boshqaruvida bo'lishi, foydalanilishi mumkinligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1025-son Qonuni 35-moddasi

mazmunini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2025-yil 25-iyuldagi 14/3-son dalolatnomasi). Ushbu taklif “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 24-moddasi mazmuniga o‘z mulkida yoki operativ boshqaruvida qimmatbaho metallar parchalari, chiqindilari hamda qimmatbaho toshlarning chiqindilari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan o‘z ishlab chiqarishida ulardan qayta foydalanish uchun mustaqil ravishda qayta tayyorlanishi, ishlov berilishi mumkinligi haqidagi normalar kiritilishiga xizmat qilgan;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlarni tamg‘alash faoliyatida ishtirok etuvchi qonunchilik bilan belgilangan subyektlar doirasini hamda ularga tegishli vakolatlar ko‘lamini yanada kengaytirish, shuningdek, qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallarga oid qonunchilikdagi huquqiy tushunchalarni bank, moliya sohasidagi qonunchilikda ifodalangan mavjud huquqiy tushunchalarga muvofiqlashtirishga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 17-apreldagi “Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–1058-son Qonuni 10-moddasini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2025-yil 25-iyuldagi 14/3-son dalolatnomasi). Ushbu takliflar qabul qilinishi tashkiliy jihatdan murakkablik va moliyaviy-inklyuziya ta'siri yuqori bo‘lgan mikromoliya tashkilotlari zargarlik mahsulotlarini tamg‘alash faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar doirasiga kiritilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining apsorbiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan 6 ta ilmiy maqola (3 ta xalqaro), 8 ta ilmiy konferensiyalar to‘plamlarida (3 ta xalqaro) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 154 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning umumiy tavsifi**” ga

bag'ishlangan bo'lib, unda qimmatbaho toshlar va metallar tushunchasi, ular bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mazmuni, fuqarolik-huquqiy tartibga solish obyekti sifatidagi xususiyatlari, shuningdek, sohani tartibga soluvchi fuqarolik-huquqiy normalar tizimining rivojlanish tendensiyasi hamda milliy qonunchilikdagi sohaga oid normativ hujjatlar mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Bugungi globallashuv va resurslarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot sharoitida qimmatbaho metallar va toshlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tobora murakkab tus olmoqda. Ushbu resurslar ustidan suverenitet, egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish kabi masalalarni amalga oshirishda xalqaro hamjamiyat tomonidan "Regalian huquqi" (*Jus Regale*) - "Davlat mulkchilik doktrinasini" yoki "*Sovereignty over Natural Resources*" (Tabiiy resurslar ustidan suverenitet) doktrinasini, "Mas'ul ta'minot doktrinasini" (Responsible Sourcing), "*State Pre-Emptive Rights*" (Davlat ustuvor xaridi) hamda "Hujjatli kuzatuv" (*Traceability Doctrine*) kabi bir qancha asosiy doktrinalar qo'llanilib kelinmoqda. Bunda "Regalian huquqi - Davlat mulkchilik" doktrinasiga ko'ra, davlat o'z hududidagi tabiiy boyliklar ustidan to'liq suverenitetga ega hamda ularni boshqarish, qazib olish va tasarruf etishda to'liq huquqlarni amalga oshiradi. BMTning 1962-yilgi "Tabiiy boyliklar ustidan suverenitet" rezolyutsiyasi bu tamoyilni xalqaro huquqqa kiritgan. Venesuela, Nigeriya, Indoneziya kabi resurslarga boy davlatlar ushbu doktrina tamoyillarini qo'llash orqali davlatlarning o'z tabiat resurslarini mustaqil boshqarish huquqini himoya qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSh da "nizoli minerallar" muomalasini oldini olishda ushbu doktrina tamoyillari keng qo'llanilib kelayotgan bo'lib, 2010-yilgi "Dodd-Frank akti"ning 1502-bo'limi ushbu konsepsiya tamoyillari bilan mustahkamlangan. Bunda, qimmatbaho tosh va metallar realizatsiyasida ishtirok etuvchi subyektlar ushbu resurslar kelib chiqish manbalarini tekshirib, ularning qonuniy, etik ekanligiga ishonch hosil qilishi shart.

Muallif O'zbekistonda ham qimmatbaho toshlar va metallar bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishda "Regalian huquqi" doktrinasini bilan bir qatorda "Hujjatli kuzatuv" doktrinasini qo'llashni ta'kidlab o'tadi. Natijada O'zbekiston soha faoliyatida quyidagi natijalarga erishishi mumkin bo'ladi.

1) davlat qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga egalik qilishda resurslarni boshqarish huquqiga ega hamda xalqning ushbu umummilliy boylikdan oqilona foydalanishini ta'minlash orqali ularni muhofazalaydi va fuqarolik muomalasini to'g'ri yo'lga qo'yishga erishadi;

2) davlat qimmatbaho minerallar noqonuniy qazib olinishini, kontrabanda mahsulotlarning qonuniy bozorlarga kirib kelishini oldini olishda qimmatbaho toshlar va metallar ta'minot zanjirida mahsulotning kelib chiqishi, harakat yo'li va mulk egalari o'zgarishini hujjatlar bilan aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 1952-yil 12-yanvardagi 523 (VI), 1952-yil 21-dekabrda 626 (VII) hamda 1962-yil 14-dekabrda 1803 (XVII) rezolyutsiyalari "*xalqning o'z boyliklaridan erkin foydalanish va eksplutatsiya qilish huquqi*"ni ularning suverenitetining ajralmas qismi deb e'tirof etgan. Mazkur umumqabul qilingan tog'-kon munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida quyidagi konstitutsiyaviy ifodani topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

68-moddasiga muvofiq, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta‘minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot ishida qimmatbaho toshlar va metallar huquqiy tushunchalari hamda ularning fuqarolik huquqi obykti bo‘la olishiga nisbatan qator olimlar (I.Zokirov, H.R.Rahmonqulov, O.Okuyulov, I.Imomov, J.Yuldashev, S.I. Popova, D.O. Shniger, A.Y. Fedorov, R.M. Olimova, M.A. Zinkovskiy va S.A. Rebrovskiy, V.G. Gadiatov K. Zveigert, K.Kantz, L.Kartier H. Kotz, P. Bernstein, E. Bruton, M.Donoghue) fikrlari keltirilishi bilan birga, ishda xalqaro tijorat tashkilotlarining ham huquqiy ta‘riflari eslab o‘tiladi, shuningdek, “qimmatbaho toshlar” tushunasiga nisbatan mualliflik ta‘rifi taklif etiladi. Unga ko‘ra, “qimmatbaho toshlar - bu yer osti qazilma boyliklarini qazib olish natijasida tabiiy usulda qo‘lga kiritilgan hamda sun‘iy/sintetik shaklda laboratoriya sharoitida, inson mehnati omili natijasida yaratilgan tosh tasnifiga kiritiluvchi minerallardir. Qimmatbaho toshlar turkumiga kiruvchi qazilma boyliklarining boshqa individual xususiyatlari va iqtisodiy-qiymatlilik belgilari qimmatbaho toshlarga oid munosabatlarni texnik jihatdan tartibga soluvchi reglamentlar bilan belgilab beriladi. Qahraboning noyob hosilalari qimmatbaho toshlarga tenglashtirilishi mumkin”.

Shuningdek, dissertant qimmatbaho toshlar va metallar muomalasi o‘ziga xos mulkiy va tashkiliy munosabatlarni o‘zida ifoda etishi hamda ushbu sohada yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning boshqa sohalari - ma‘muriy, ekologiya, yer, soliq, mehnat huquqidan farqli ravishda qimmatliklarni qazib olish, oldi-sotdi qilish, narx shartlarini belgilash, egalik qilish, yetkazib berish yoki saqlash sharoitlarini aniqlash kabilar o‘ziga xos mulkiy munosabatlar sifatida namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, qimmatbaho metallar va toshlar muomalasi bilan yuzaga keladigan munosabatlar ham fuqarolik-huquqiy tartibga solishning obykti bo‘la olishi borasidagi o‘z pozitsiyasini bildiradi.

Shuningdek, dissertant 2017-yildan hozirga qadar bo‘lgan davrni qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi rivojlanishining yangi davri deb nomlab, ushbu muddatda O‘zbekistonda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasining yangi va zamonaviy strategiyalari ishlab chiqilgani, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi bo‘yicha amaldagi tartibni zamonaviy tarzda rivojlantirish, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi sohasida oqilona foydalanish tamoyilining o‘rnatilganligi bilan xarakterlaydi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-noyabrdagi “Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4030-son qarori qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar muomalasi sohasida tub burilish yasagan, soha liberallashtirishini o‘zida aks ettirgan normativ hujjat hisoblanishi hamda bu yo‘nalishda o‘z tadbirkorligini YTT (yakka tartibdagi tadbirkor) shaklida boshlagan oddiy jismoniy shaxslar faoliyatining mexanizmlari haqida yozadi.

Dissertatsiyaning **“Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar muomalasi, ular bilan bog‘liq munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish, shuningdek, qimmatbaho toshlarni qayta ishlashning ayrim masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida qimmatbaho toshlarni qayta ishlash bilan bog‘liq munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xosligi, zargarlik hamda affinajlik faoliyati bilan bog‘liq ayrim munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy tartibga solish masalalari, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni hisobga olish, saqlash, ulardan foydalanish hamda ularni realizatsiya qilish munosabatlari haqida so‘z yuritadi.

Yer osti boyliklari ustidan mulk huquqi shakllanishi haqidagi masala “bu haqiqatan asl mulk huquqi hisoblanadimi?” degan o‘rinli savolni paydo qiladi hamda xalqaro huquqning konseptual qoidasi “Tabiiy resurslar ustidan suverenitet” (Sovereignty over Natural Resources) va “Mas’ul ta’minot” (Responsible Sourcing) doktrinasidan kelib chiqib, yer osti boyliklarining maqomini quyidagilarda aks ettiradi:

- davlatning vazifasi - yer osti boyliklaridan foydalanishda umumxalq manfaatlarini ta’minlash, ya’ni mamlakatning iqtisodiy farovonligini oshirish bilan birga tabiiy boyliklarga zarar yetkazilishining oldini olish;

- davlat yer osti boyliklaridan foydalanishga nisbatan ruxsat berish va nazorat qilish mexanizmlarini olib borish va yuritishni o‘z zimmasida qoldirish.

Xalqaro savdodagi “barqarorlik” (sustainability) va “aylana iqtisodiyot” (circular economy) konsepsiyalari qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallarni affinaj qilishda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Bunda O‘zbekiston AQSh va Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlari kabi ushbu konsepsiyani amaliyotga qo‘llashi orqali qimmatbaho toshlar va metallarni qayta ishlash va affinajlashda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga, xususan, ***xarajatlarni kamaytirish, tabiiy resurslarni tejash va atmosfera ifloslanishini oldini olish kabi samarali natijalarga ega bo‘ladi.***

Qimmatbaho metalni yetkazib berish shartnomasi oldi-sotdi shartnomasining alohida turi hisoblanadi. Ushbu shartnoma bilan qimmatbaho metal mahsulot sifatida sotiladi, affinaj korxonasi esa ushbu tovar uchun haq to‘laydi. Mazkur jarayondagi barcha munosabatlar qimmatbaho metalni sotish shartnomasi asosida hal etiladi. Yer qa’ri uchastkalaridan qazib olingan qimmatbaho metallar va toshlarni sotib olishga bo‘lgan ustuvor huquq O‘zbekiston vakolatli davlat organlariga (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki) tegishli bo‘ladi. Markaziy bank o‘zining qimmatbaho metallardagi aktivlarini to‘ldirish maqsadida affinaj qilingan qimmatbaho metallarni sotib olishga bo‘lgan ustuvor huquqini amalga oshirishdan yozma ravishda voz kechganda sanoat usulida qazib oluvchi subyektlar va affinaj korxonalari qimmatbaho metallarni birjalar orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha realizatsiya qilish huquqiga ega.

Noyob toifasiga kiritilishi mumkin bo‘lmagan qimmatbaho metallar yombilari va ushbu yombilarning mineralogik kolleksiya namunalari sanoat usulida qazib oluvchi subyektlar hamda oltin izlovchilar usulida qazib oluvchi subyektlar tomonidan qonunchilikka muvofiq fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzish yo‘li bilan baholanishi va taraflar istagan (kelishgan) narxlarda realizatsiya qilinishi (o‘z ishlab chiqarishida, garov narsasi yoxud boshqa moliyaviy majburiyat sifatida

foydalanilishi) mumkin. Shuningdek, qimmatbaho metallar va toshlar realizatsiyasini birja savdolari tashkil etish yo‘li bilan amalga oshirish ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarning alohida turi hisoblanadi va boshqa fuqarolik bitimlardan farqli ravishda maxsus normalar bilan tartibga solinadi. Masalan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” diler sifatida o‘z hisobidan oltin sotishi, zargarlik korxonalarida esa broker orqali mijozlar uchun oltin sotib olishi kabi.

Dissertant affinaj faoliyati qimmatbaho metallar bilan bog‘liq faqat texnologik jarayon emas, balki qimmatbaho metallarning fuqarolik muomalasida davlat nazoratini ta‘minlovchi muhim bosqich ekanini ta‘kidlaydi, sababi qimmatbaho metal affinaj qilib bo‘lingandan keyin uning qaysi manbadan kelib chiqqanini aniqlashning imkoni bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, affinaj bosqichigacha va affinajning qonuniyligi juda muhim hisoblanib, qimmatbaho metalning ikkilamchi mahsulotga aylanib, bozorga tovar sifatida taqdim etilganidan keyingi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qonunbuzilishi holatlarini oldini oladi.

Shunday qilib, dissertant rivojlangan mamlakatlar tajribasi (Germaniya, Kanada, AQSh, Xitoy) hamda OECD (Organisation for economic co-operation and development- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) Kimberley jarayoni, Dodd-Frank akti kabi xalqaro tuzilma va kelishuvlar mazmunida qimmatbaho toshlarni ishlab chiqarish, egalik qilish, foydalanish, realizatsiya qilishda hisobga olishning hujjatli asosda yuritilishi **“Traceability Doctrine” (Hujjatli kuzatuv) doktrinasi** tamoyillarini qo‘llash hamda ularni o‘z amaliyotiga joriy eta olish O‘zbekiston uchun manfaatli bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Bugungi kunda jahonda zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, qimmatbaho toshlar va metallar savdosida **“blokcheyn texnologiyasi”** va **“aqlli kontraktlar”**ning joriy etilishi (**“De Beers”, Everledger platformasi tajribasi**) muomala shaffofligi, aniqlik va xavfsizlik choralari hamda avtomatlashtirilgan nazorat imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o‘ynamoqda.

“Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi bilan bog‘liq qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik va sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish masalalari” deb nomlangan uchinchi bobida qimmatbaho metallar va toshlar bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilash, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda mamlakatimizdagi sohani tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish masalalari haqida so‘z boradi.

Qimmatbaho metallar va toshlar bozori ishtirokchilari bitimlar tuzishda Fuqarolik kodeksi normalariga tayangan holda shartnomaviy javobgarlikni mustaqil belgilash huquqiga ega, faqat bu javobgarlik majburiy(o‘zgacha) tarzda belgilab qo‘yilgan hollar bundan mustasno. Bundan tashqari, soha faoliyati doirasida shunday maxsus hujjatlar borki, davlat vakolatli tashkilotlari (Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, Moliya vazirligi) tomonidan shakli, mazmuni, qo‘llanilish sohasi va doirasi oldindan tasdiqlangan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, bu hujjatlar doirasida **“standart shartnomalar”** ishlab chiqiladi hamda ularni taraf sifatida davlat vakolatli organi qimmatbaho toshlar va metallarni sotib olishda davlat nomidan ishtirok etadi. Bunda

ishtirokchilar shartnomalarga faqat u yerda ko‘rsatilgan shartlar asosida, jumladan ***javobgarlik shartlari asosida*** qo‘shilishi mumkin.

Shartnomaviy va noshartnomaviy javobgarlik masalalari Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Belgiya kabi mamlakatlarda o‘ziga xos bo‘lib, London qimmatbaho metall bozori assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan “Good Delivery” sertifikatiga ega bo‘lmagan metallar muomalaga kiritilmaydi. OMC (Unallocated Metal Accounts) –“Obyektsiz metal hisobvaraqlar” va “Mas’ul saqlodagi metall hisobvaraqlar”- (Allocated Metal Accounts) hisobvaraqlari shartnomaviy huquq bilan tartibga solinadi, javobgarlik ham shartnomada qat’iy ko‘rsatilib, metallarni kechikib yetkazib berganlik uchun penyalari belgilanadi.

So‘nggi yillarda (2021-yildan boshlab) sun‘iy va tabiiy toshlarni farqlashda iste’molchilarni chalg‘itmaslik uchun yorliqlash va sertifikatlash bo‘yicha aniq talablar joriy etilmoqda. Bunda AQSh, Yevropa Ittifoqi, Germaniya va Fransiya kabi davlatlar qat’iy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Bunda, ishlab chiqarishning ekologik ta’siri va energiya sarfi ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Lekin dunyo bo‘ylab yagona xalqaro standartlarning yo‘qligi sun‘iy toshlar savdosida muammolar keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, GIA (Gemological Institute of America – Amerika qimmatbaho toshlar instituti), “Gübelin”, “Gem Lab” kabi tashkilotlar xalqaro standartlar ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, “nizoli toshlar” tushunchasi ham xalqaro savdoda e’tiborga olinadi, chunki urush zonalarida qazib olingan toshlar inson huquqlari buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ba’zi davlatlarda esa “yarim qimmatbaho toshlar” atamasi bilan noan’anaviy minerallar ham qonunchilik bilan tartibga solingan. O‘zbekiston huquqiy tizimi xalqaro tajriba bilan solishtirganda ma’lum darajada asosga ega, ammo sun‘iy va organik toshlar maqomini aniq belgilash, ularni tasniflash va huquqiy tartibga solish borasida qo‘shimcha normativ-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqish zarurati mavjud.

1. Xalqaro tashkilotlar va O‘zbekistonning integratsion qadamlari: 2025-yil mart oyiga kelib, AQSh Davlat departamenti O‘zbekistonning Kimberly jarayoni “Sertifikatlash sxemasi” bo‘yicha a’zo sifatida qo‘shilganini rasman e’lon qildi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston 2024-yil aprel oyida CRM (Customer Relationship Management - Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish) bo‘yicha ***strategik hamkorlik memorandumini*** imzolagan bo‘lib, bu o‘zaro bilim almashinuvi, innovatsiyalarni joriy etish va minerallarni barqaror qazib olishga xizmat qilmoqda. 2024-yilda AQSh va O‘zbekiston “mineral resurslar yetkazish zanjirlarini diversifikatsiya qilish” yuzasidan anglashuv memorandumini imzoladi. Maqsad “toza energiya”ga o‘tish va ekologik barqarorlikni ta’minlash. 2019-yilda OKMK (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati) va Janubiy Koreya hamkorligida nodir yer elementlarini qazib olishga oid ilk ilmiy markaz tashkil etilgan.

2. Qonunchilik va xalqaro standartlar: Bugungi kunda O‘zbekistonda qimmatbaho metallar muomalasi asosan ichki me’yoriy hujjatlar, yopiq davlat reyestrlari orqali tartibga solinadi. Biroq xalqaro tajribani inobatga olgan holda, ushbu tizimni quyidagicha takomillashtirish lozim: LBMA, CIBJO (The World jewellery confederation - Jahon qimmatbaho toshlar konfederatsiyasi), AGTA (American gem trade association-Amerika qimmatbaho tosh savdo assotsiatsiyasi)

kabi tashkilotlar standartlarini milliy qonunchilikka joriy qilish lozim. Masalan, Navoiy KMK kabi affinaj zavodlari LBMA ning **“Good Delivery”** mezonlariga mos mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi orqali O‘zbekiston oltini xalqaro bozorlarda tan olinadi. Xalqaro qimmatbaho metallar institutlariga a‘zo bo‘lish texnologik innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot loyihalari, “best practice” tajribalari va investorlar bilan aloqalarni kuchaytiradi. Raqamli nazorat tizimlarini (“blockchain”, “IoT - Internet of Things”, ERP ni (Enterprise Resource Planning - Korxonalar resurslarini rejalashtirish) joriy qilish orqali qimmatbaho metallar harakatini monitoring qilish va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish mumkin. IFRS (International Financial Reporting Standards - Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish orqali oltin va boshqa metallar aktiv sifatida moliyaviy hisobotda aniq aks ettiriladi.

Shuningdek, ilmiy ish mazmunida milliy qonunchilikda mavjud bo‘lgan “davlatning qimmatbaho metallarni xarid qilishdagi imtiyozli huquqi” aslida “sotish majburiyati” sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois, mazkur normaning huquqiy ifodasi “davlatning ustuvor xarid huquqi” yoki “sotish bo‘yicha majburiy taklif” sifatida yangilanishi maqsadga muvofiq.

3. Qimmatbaho metallarda bank xizmatlari: omonatlar va hisobvaraqlar: Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Indoneziya tajribasiga ko‘ra, qimmatbaho metallar asosidagi bank omonatlari va hisobvaraqlarining yuritilishi qonunchilik bilan tartibga solingan. O‘zbekistonda ham mazkur amaliyotni joriy etish uchun Fuqarolik kodeksiga quyidagi mazmundagi yangi norma kiritish taklif etiladi:

